



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

20 26 yil “ 15” aprel \_\_\_\_\_

№ 131

Toshkent sh.

### **Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi hisobidan Tuman (shahar) tibbiyot muassasalarida yangi davolash usullarini joriy etgan shifokorlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-noyabrdagi “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi PQ–336-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, davlat tibbiyot muassasalarida tibbiy yordam sifati va samaradorligini oshirish, yangi davolash usullarini amaliyotga joriy etgan tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

“Tuman (shahar) darajasida yangi davolash usullarini joriy qilgan shifokorlarni rag‘batlantirish tartibi” 1-ilovaga;

“Tuman (shahar) darajasida yangi davolash usullarini joriy qilgan shifokorlarni rag‘batlantirishini tashkil etadigan kengash tarkibi” 2-ilovaga;

“Talabgorlarning taqdim etadigan ariza namunasi” 3-ilovaga;

“Kengash majlisi bayonnomasi” 4-ilovaga;

“Ekspert xulosasi namunasi” 5-ilovaga;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi yoki tegishli hududiy sog‘liqni saqlash boshqarmasi dalolatnoma namunasi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi bo‘limi (A. Xasanov):

ushbu buyruq bilan tasdiqlangan tartiblar asosida Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan to‘lovlarni amalga oshirish tartibini belgilovchi Jamg‘arma kuzatuv kengashi qarorini belgilangan tartibda tayyorlasin va tasdiqlanishini ta‘minlasin;

Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha hisobdorlik va monitoringni amalga oshirsin.

3. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (S. Islamov):

Jamg'arma kuzatuv kengashining tasdiqlangan qarorlari asosida belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirsin;

mablag'larning maqsadli sarflanishi yuzasidan hisobot va hujjatlarni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq yuritilishini ta'minlasin.

4. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari A.Boboyev hamda vazir o'rinbosari F.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**A.Xudayarov**

## **Tuman (shahar) darajasida yangi davolash usullarini joriy qilgan shifokorlarni rag'batlantirish tartibi**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Tartib davlat tibbiyot muassasalarida Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) mablag'lari hisobidan tuman (shahar) darajasida yangi davolash usullarini joriy qilgan va uning ijobiy samarasiga erishgan shifokorlarga bir martalik pul mukofotini tayinlash va to'lash tartibini belgilaydi.

2. Rag'batlantirish har yili o'tkaziladi va unda ishtirok etish huquqi tuman (shahar) darajasidagi barcha davlat tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassis shifokorlarga beriladi.

3. Tanlovda tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari, tuman (shahar) markaziy shifoxonalar va oilaviy poliklinikalarda mehnat qilayotgan shifokorlar qatnashishlari mumkin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'liqni saqlash sohasida innovatsion yondashuvlarni rag'batlantirishga doir topshiriqlariga muvofiq, Tanlov g'oliblariga Jamg'arma mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti beriladi.

### **2-bob. Yangi davolash usuli tushunchasi**

4. **Yangi davolash usuli** — bu tuman (shahar) darajasidagi davlat tibbiyot muassasasida avval qo'llanilmagan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va tasdiqlangan klinik protokollarga muvofiq, zamonaviy tibbiy yondashuvlarga asoslangan hamda qo'llanilishi natijasida davolash samaradorligi ortgan va bemorlar xavfsizligi yaxshilangan usul hisoblanadi.

5. Yangi davolash usuli quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

tasdiqlangan klinik protokol va standartlarga asoslangan tuman (shahar) darajasida yangi davolash usulini amaliyotga joriy etish;

yangi davolash texnologiyalari, uskunalari yoki kam invaziv usullarni amaliyotga tatbiq qilish.

6. Quyidagilar yangi davolash usuli hisoblanmaydi:

mavjud usulni oddiy tarzda qo'llash;  
klinik jihatdan samaradorligi asoslanmagan yoki tasdiqlanmagan usullar;  
amaldagi normativ hujjatlarga zid amaliyotlar.

### **3-bob. Mukofot tayinlash shartlari**

7. Quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilganda mukofot tayinlanadi:  
yangi davolash usuli avval ushbu tuman (shahar) tibbiyot muassasasida  
qo'llanilmagan bo'lishi;

usul joriy etilganligi muassasaning tibbiy kengash qarori bilan tasdiqlangan  
bo'lishi;

kamida 6 oy davomida qo'llanilib, ijobiy klinik natijalar qayd etilgan  
bo'lishi;

tibbiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil va statistik ma'lumotlar bilan  
asoslangan bo'lishi.

8. Bir shifokorga ushbu asosda bir kalendar yil davomida faqat bir marta  
mukofot beriladi.

### **4-bob. Hujjatlarni taqdim etish tartibi**

9. Mukofot olish uchun shifokor tomonidan quyidagi hujjatlar davlat  
tibbiyot muassasasi hududiy sog'liqni saqlash boshqarmasiga, ular orqali  
Sog'liqni saqlash vazirligiga kiritiladi:

ariza (buyruqning 2-ilovasi);

talabgor shaxsini tasdiqlovchi hujjat (ID-card yoki passport);

yangi usul joriy etilganligi to'g'risida muassasaning tasdiqlangan tibbiy  
kengash qarori nusxasi;

klinik natijalar tahlili va hisoboti;

hududiy sog'liqni saqlash boshqarmasining taqdimnomasi (buyruqning  
6-ilovasi);

talabgorning mehnat daftarchasidan ko'chirma.

10. Hujjatlar dastlab hududiy sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan  
ko'rib chiqiladi va ma'qullangan taqdirda Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiy  
yordamni tashkillashtirish departamentiga kiritiladi.

Ishchi organ – Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti hisoblanadi.

### **5-bob. Vazirlik kengashi faoliyati**

11. Mukofot tayinlash Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida tuziladigan  
Tuman (shahar) darajasida yangi davolash usullarini joriy qilgan shifokorlarni

rag'batlantirishini tashkil etadigan kengash (keyingi o'rinlarda - Kengash) qarori asosida amalga oshiriladi.

**12.** Ishchi organ Nizomning 9-bandiga muvofiq taqdim etilgan hujjatlarni ekspertlarga Kengash uchun hulosa berish maqsadida yuboradi.

**13.** Kengash hujjatlarni yiliga 2-marotaba (may va oktyabr oylarida) qabul qiladi va 20 ish kuni mobaynida ko'rib chiqib, qaror qabul qiladi.

**14.** Kengash qarori (buyruqning 3-ilovasi) bayonnoma shakli bilan rasmiylashtiriladi, ekspertlar xulosasi (buyruqning 4-ilovasi) beriladi va vazirning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

#### **6-bob. Mukofotni to'lash tartibi**

**15.** Kengashning ijobiy qarori va vazir buyrug'i asosida Jamg'arma mablag'lari hisobidan BHMning 50 baravari miqdoridagi bir martalik pul mukofoti Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan to'lanadi.

**16.** Mukofot mablag'i shifokorning ish haqi kartasiga 15 ish kuni ichida o'tkazib beriladi.

#### **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

**17.** Noto'g'ri ma'lumot yoki soxta hujjatlar taqdim etilgan taqdirda mukofot bekor qilinadi va to'langan mablag'lar qonunchilikka muvofiq undiriladi.

**18.** Ma'lumotlar haqqoniyligiga mas'ul xodim tuman (shahar) tibbiyot muassasasi rahbarlari hisoblanadi.

**Tuman (shahar) darajasida yangi davolash usullarini joriy qilgan  
shifokorlarni rag'batlantirishini tashkil etadigan kengash  
TARKIBI**

A. Boboyev	–	Sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari, <i>Kengash raisi</i>
F. Toshpulatov	–	Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari, <i>Kengash hamraisi</i>
A. Alijonov	–	Sog'liqni saqlash vazirligi, Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti boshlig'i, <i>Kengash a'zosi</i>
B. Odilova	–	Sog'liqni saqlash vazirligi, Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini muvofiqlashtirish va ekologik diplomatiya boshqarmasi boshlig'i, <i>Kengash a'zosi</i>
U. Riskiyev	–	Sog'liqni saqlash vazirligi, Statsionar xizmat va dori vositalari ehtiyojlarini shakllantirish boshqarmasi boshlig'i, <i>Kengash a'zosi</i>
O. Safarov	–	Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi boshlig'i, <i>Kengash a'zosi</i>
A. Xasanov	–	Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi direksiyasi bo'limi, <i>Kengash a'zosi</i>
S. Islamov	–	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi boshlig'i, <i>Kengash a'zosi</i>
X. Ibragimov	–	Sog'liqni saqlash vazirligi, Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti xodimi, <i>Kengash kotibi</i>

**Izohlar:**

1. *Kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.*
2. *Kengash raisiga mazkur ro'yxatga qo'shimcha mutaxassislarini kiritish vakolati beriladi.*

Sog'liqni saqlash vazirining  
2026-yil "15" 04 dagi  
131-sonli buyrug'iga  
3-ilova

### Talabgorlarning taqdim etadigan ariza namunasi

Sog'liqni saqlash vaziriga  
(hudud va lavozim ko'rsatiladi)

**Ariza beruvchi:**

F.I.Sh.: \_\_\_\_\_

Lavozimi: \_\_\_\_\_

Tibbiyot muassasasi: \_\_\_\_\_

Telefon / e-mail: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Yangi davolash usulini joriy qilganligi uchun bir martalik pul mukofotini tayinlash

#### Ariza

Men, tuman (shahar) darajasidagi davlat tibbiyot muassasasida yangi davolash usulini joriy qilganimni va uning ijobiy klinik samarasiga erishganimni ma'lum qilaman.

**Yangi davolash usuli quyidagilardan iborat:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

*(usulning qisqacha tavsifi, asosiy jihatlari, samaradorlik xususiyatlari)*

Ushbu usul 6 oy davomida qo'llanilgan va klinik natijalar quyidagicha baholandi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

*(asoratlar kamayishi, shifo topish ko'rsatkichi, statsionarda yotish muddatining qisqarishi va h.k.)*

**Quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:**

- shaxsimni tasdiqlovchi hujjat (ID-card yoki passport);
- muassasa tibbiy kengashi qarori nusxasi;
- klinik natijalar tahlili va hisoboti;
- hududiy sog'liqni saqlash boshqarmasi taqdimnomasi;
- mehnat daftarchasidan ko'chirma.

Mening ushbu arizamni ko'rib chiqib, Jamg'arma mablag'lari hisobidan BHMning 50 baravari miqdorida bir martalik pul mukofotini tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishingizni so'rayman.

Sana: \_\_\_\_\_

Imzo: \_\_\_\_\_

**Kengash majlisi bayonnomasi № \_\_\_\_\_**

Sana: \_\_\_\_\_

Sog'liqni saqlash vazirligi

Qatnashdilar: (ro'yxat ilova qilinadi)

**Kun tartibi:**

Tuman (shahar) darajasida yangi davolash usulini joriy etgan shifokorni rag'batlantirish masalasi.

**Tinglandi:**

Komissiya kotibi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar haqida axborot.

**So'zga chiqdilar:**

(qisqacha fikrlar bayoni)

**Qaror qilindi:**

1. Shifokor \_\_\_\_\_ ga BHMning 50 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti tayinlansin / rad etilsin.
2. Moliya-iqtisod boshqarmasiga tegishli to'lovni amalga oshirish topshirilsin.

**Ovoz berish natijasi:**

"Tarafdor" \_\_\_ ta

"Qarshi" \_\_\_ ta

"Betaraf" \_\_\_ ta

Komissiya raisi: \_\_\_\_\_

Kotib: \_\_\_\_\_

### **Ekspert xulosasi namunasi**

Tuman (shahar): \_\_\_\_\_

Tibbiyot muassasasi: \_\_\_\_\_

Shifokor F.I.Sh: \_\_\_\_\_

Lavozimi: \_\_\_\_\_

Ishchi organ tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va klinik natijalar tahlili o'rganildi.

#### **O'rganish natijalariga ko'ra:**

Yangi davolash usuli amalda joriy etilgan;

Usul kamida 6 oy davomida qo'llanilgan;

Klinik samaradorlik ko'rsatkichlari (asoratlar kamayishi, shifo topish ko'rsatkichi oshishi, statsionarda yotish muddati qisqarishi va h.k.) ijobiy dinamikani ko'rsatgan;

Usul amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga zid emas.

#### **Xulosa:**

Shifokor \_\_\_\_\_ ni Jamg'arma mablag'lari hisobidan BHMning 50 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantirish maqsadga muvofiq / muvofiq emas.

Ekspert : \_\_\_\_\_

Konsultant: \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

Sog'liqni saqlash vazirining  
2026-yil "15" 04 dagi  
131 -sonli buyrug'iga  
6-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi yoki tegishli  
hududiy Sog'liqni saqlash boshqarmasi dalolatnoma namunasi**

**Tuzilgan sana:** "\_\_\_" \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

Biz, quyida imzo chekkanlar:

1. \_\_\_\_\_

(F.I.Sh., lavozimi – Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari yoki hududiy Sog'liqni saqlash boshqarmasi birinchi o'rinbosari)

2. \_\_\_\_\_

(F.I.Sh., lavozimi – yo'nalish bo'yicha hududdagi bosh mutaxassis)

ushbu dalolatnomani quyidagilarni aniqlash maqsadida tuzdik:

**1. Umumiy ma'lumotlar**

Tibbiyot muassasasi nomi: \_\_\_\_\_

Manzili: \_\_\_\_\_

Shifokorning F.I.Sh.: \_\_\_\_\_

Lavozimi (mutaxassisligi): \_\_\_\_\_

Ish joyi (bo'lim): \_\_\_\_\_

**2. Yangi davolash usuli to'g'risida ma'lumot**

Davolash usulining nomi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Usul joriy etilgan sana: \_\_\_\_\_

Usulning qisqacha tavsifi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Usulning yangiligi (innovatsionligi) asoslari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

### 3. Amaliy natijalar va samaradorlik

Davolangan bemorlar soni: \_\_\_\_\_

Ijobiy natijalar ulushi (%): \_\_\_\_\_

Asoratlar darajasi (agar mavjud bo'lsa): \_\_\_\_\_

Boshqa muhim ko'rsatkichlar: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

### 4. Ekspert xulosasi

Mazkur yangi davolash usuli:

- amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilgan;
- tibbiy yordam sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda;
- keng joriy etish uchun tavsiya etiladi / etilmaydi (keraklisi belgilanadi).

### 5. Xulosa

Yuqoridagilarga asosan, (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_

tomonidan joriy etilgan \_\_\_\_\_

(nomi) davolash usuli amaliyotda qo'llanilgani va uning natijalari tasdiqlanadi hamda belgilangan tartibda rag'batlantirish uchun tavsiya etiladi.

Tashkilot muhri